

Mashg'ulotning maqsadi

O'quvchilar o'simliklarning tuzilishi, o'sishi va rivojlanishi uchun nima kerakligini o'rganib, ularni parvarish qilishning ahamiyatini bilib oladi.

Mashg'ulot davomiyligi

35-40 daqiqa

Interfaol resurslar

Platformadagi interfaol resurslar **1-sinf Tabiiy fan (science)** darsligining **16-sahifasidagi** ma'lumotlar asosida tayyorlangan.

Muhim va asosiy nazariy qism

O'simliklar - tirik mavjudotlar bo'lib, ular o'sadi, rivojlanadi va ko'payadi. Har bir o'simlik ildiz, poya, barg, gul va mevalardan iborat. Quyosh nuri, suv va havodagi karbonat angidrid gazini qabul qilib, oziq moddalar hosil qiladi. Bu jarayon fotosintez deb ataladi. Karbonat angidrid gazini yutib, kislorod chiqaradi. O'simliklar insonlar hamda hayvonlar uchun oziq manbai bo'lib xizmat qiladi.

STEM fanlar bilan integratsiyasi

- ◆ **Tabiiy fanlar** - o'simliklarning tuzilishi, o'sishi va rivojlanishi haqida ma'lumotlarga ega bo'lish.
- ◆ **Texnologiya** - qog'ozdan gul yoki barg yasash. Barglarni qog'ozga bosib, tabiiy naqshlar yaratish.
- ◆ **Matematika** - o'simlik har kuni necha mm o'sganini o'lchab, natijalarni taqqoslash. O'simlik qismlarining sonini sanash va taqqoslash.
- ◆ **Informatika** - o'simlik rasmini chizib, hayot siklini tasvirlash.

Qiziqarli fakt

Yer yuzida **390 000** dan ortiq turdagi o'simliklar mavjud! Ularning ko'pchiligi havo tarkibini tozalaydi va insonlar nafas olishi uchun kislorod hosil qiladi. Bitta katta daraxt bir kunda 4 kishining nafas olishi uchun yetarli kislorod ishlab chiqaradi!